Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
Rahmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



SURXONDARYO VILOYATIDA SUG'ORILADIGAN YERLARDAN FOYDALANISH HOLATINING STATISTIK TAHLILI



Sharifi Abdul Fatah

Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida sug'oriladigan yerlardan foydalanish holati o'rganilgan va statistik tahlil qilingan. Viloyatda qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni (dehqonchilik) hamda qishloq xo'jaligi mahsuloti (dehqonchilik) statistik tahlil qilingan. Shuningdek, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish asosida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, yer, sug'oriladigan yerlar, dehqonchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, statistik tahlil.

Abstract: In this article, the use of irrigated land in Surkhondaryo region is studied and statistically analyzed. Agricultural crop area (farming) and agricultural products (farming) were statistically analyzed in the region. Also, based on the analysis of the factors affecting the effective use of irrigated land in agriculture, scientific proposals for the effective use of irrigated land have been developed.

Key words: agriculture, land, irrigated land, farming, agricultural products, statistical analysis.

Аннотация: В данной статье изучено и статистически проанализировано использование орошаемых земель в Сурхандарьинской области. В регионе статистически проанализированы площади сельскохозяйственных посевов (земледелие) и сельскохозяйственная продукция (фермерство). Также на основе анализа факторов, влияющих на эффективное использование орошаемых земель в сельском хозяйстве, разработаны научные предложения по эффективному использованию орошаемых земель.

Ключевые слова: сельское хозяйство, земля, орошаемые земли, земледелие, сельскохозяйственная продукция, статистический анализ.

KIRISH

Bugungi noaniqlik, geosiyosiy jarayonlar va resurslar cheklanganlik sharoitida aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash masalasi dolzarb muammalardan biri bo'lib qolmoqda. Aniqroq aytganda, qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan tabiiy oziq-ovqatlarga bo'lgan talab oshib bormoqda. Chunki, taraqqiyotning hozirgi sharoitida hamda talabning ko'payishi natijasida sof ekologik tabiiy mahsulotlarga bo'lgan talab oshib bormoqda.

Xususan, "Worldtrade" global biznes markazi hisobotiga ko'ra, butun dunyo boylab oziq-ovqat bozori 6,21% (2023-2027) ga o'sishi prognoz qilinmoqda, buning natijasida 2027-yilda bozor hajmi 12,00 trillion AQSh dollarini tashkil etishi mumkin ^[10].

Albatta, bu qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan tabiiy oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish jarayonlarini samarali tashkil etish, xususan, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan foydalanish holatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish bilan bog'liqdir.

Zero, Jahon banki va Birlashgan millatlar tashkiloti taraqqiyoti dasturi (BMTTD) hisob-kitoblariga ko'ra, ekologik holati yaxshilangan sug'oriladigan yerlarning qo'shimcha 110 mln gektarga kengaytirishi mumkin bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar 1,500-2,000 mln kishi uchun yetarli don ishlab chiqarish sug'oriladigan yerlardan olinadigan hosil hisobiga to'g'ri kelishi kutilmoqda ^[11]. Bu esa mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ifodalaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lib, unda insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va aholi uchun iste'mol buyumlari tayyorlovchi sanoat tarmoqlariga xom ashyo ishlab chiqariladi. Bugungi kunga kelib jahon yer fondi bugungi kunda 13,4 mlrd. gektarni tashkil qiladi, uning atigi 1,5 mlrd. gektari, ya'ni 11% qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy jihatdan qulay hisoblanadi. Ularning miqdori



va sifati tabiiy va antropogen omillar va jarayonlar ta'sirida yildan yilga kamaymoqda. Demak, global oziq-ovqat muammosini yechish va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun cheklangan yer resurslarining samaradorligini oshirish kelajakda ekstensiv emas, balki intensiv omillarni qo'llash, shuningdek, yer mulkdorlari va ijarachilarining qishloq xo'jaligi yerlaridan intensiv foydalanishga investitsiya kiritish, yerlar unumdorligini saqlash va oshirish, umuman yerlarning resurs sifatidagi funksiyalarini yanada kuchaytirish imkoniyatlarini yaratadigan tizim shakllantirish va uni doimo tartibga solib borish mexanizmlari bilan ham bevosita bog'liqdir ^[1].

Iqtisodiy nuqtayi nazardan, uzoq yillar mobanida yer resurslariga an'anaviy tarzda inson yordamisiz tabiat tomonidan yetkazilgan mehnat predmetlari to'plami sifatida qaralgan ^[2]. Shu sababli ham amaliy jihatdan iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining turli bosqichlarida tabiiy shart-sharoitlarning ma'lum bir elementlari, masalan, suv resurslari, qazilma boyliklar, o'simliklar kabildan foydalanish yerning sifati va tuproq unumdorligiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatib kelgan ^[3].

Y. A. Zaxarovaning fikricha, bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi mamlakatlar iqtisodiyotida muhim strategik ahamiyat kasb etuvchi tarmoqlar qatoridan o'rin egallashini ta'kidlagan holda, ushbu soha tabiiy omillarning ta'siri, yer resurslarining holati va ularning mahsulotlar ishlab chiqarishga bevosita ta'sirini baholaydi ^[4].

N. G. Ovchinnikova esa qishloq xo'jaligida yer resurslaridan nooqilona foydalanish qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan birga iqtisodiy subyektlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlarini asossiz ravishda ortib ketishiga olib keladi, deb ta'kidlagan ^[5].

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-konseptual va amaliy jihatlari ham iqtisodiy, ham agrar sohadagi ilmiy konsepsiyalar ham ijtimoiy-iqtisodiy siyosat sohalariga tegishli hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari, uni tashkil etish xususiyatlari va takomillashtirish yo'nalishlari uzoq xorijlik olimlardan S. P. Vaskuez ^[6], D. G. Msuya ^[7], M. Veber ^[8] kabildan ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topadi.

Ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligida yer resurslaridan, xususan, sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish konsepsiyasi yerdan samarali foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy masalalarini yagona tizim sifatidagi tarkibiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Aynan shu jihatdan bu murakkab jarayon hisoblanadi.

Shu boisdan qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan foydalanish holatining o'rganish, uni statistik tahlil qilish va ushbu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafiklardan, shuningdek, statistik va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi va O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimizda yer fondi yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksining 8-moddasiga asosan 8 ta toifaga bo'linadi (1-jadval).

1-jadval: O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi, ming ga.

T/r	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug'oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	24057,1	53,59	4214,3	9,39
2	Aholi punktlarining yerlari	223,5	0,50	51,8	0,12
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	876,3	1,95	12,6	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	728,4	1,62	0,6	0,001
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	14,7	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	12021,4	26,78	45,4	0,10
7	Suv fondi yerlari	827	1,84	4,7	0,01
8	Zaxira yerlar	6144	13,69	2,3	0,005
	Jami yerlar:	44892,4	100	4331,7	9,65

Manba: O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari.



2-jadval: O'zbekiston Respublikasidagi jami foydalaniladigan yerlar maydoni, ming ga

T/r	Hududlar nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlar		Ko'p yillik daraxtzorlar		Bo'z yerlar		Pichanzor va yaylovlar		Jami qishloq xo'jalik yerlari		Tomorqa yerlari		O'rmonzorlar		Bog'dorchilik, uzumchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari		Butazorlar		Boshqa yerlar	
		jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!	jami	shu jumladan sug'oriladigan!
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	16656,1	514,6	418,5	418,5	8,1	8,1	11,2	11,2	5257,3	36,6	5695,1	474,4	52,4	39,3	1072,7	0,8	0,1	0,1	107,1	9728,7		
2	Andijon	430,3	275,9	200,4	200,4	31,2	31,2	2,6	0,5	21,1	0,9	255,3	233	52,4	38,7	3,9	3,9	0,3	0,3	118,4			
3	Buxoro	4183,1	276,3	200,1	200,1	21	21	7	7	2558,1		2786,2	228,1	59,4	46,3	334,6	1,7	0,2	0,2	45,4	957,3		
4	Jizzax	2117,9	303,9	486,9	260	27,3	38,9	11,3	1,7	736,5		1262	279	34,4	20,4	163,8	4,5	0,1	0,1	0,1	657,5		
5	Qashqadaryo	2856,8	513,5	675,7	417,3	38,9	36,7	21,9	4,6	1406,8	0,1	2143,3	458,7	80,1	48,5	164,2	6	0,3	0,3	468,9			
6	Navoiy	10948,1	126,4	122,9	92	10,3	9,6	6,8	6,7	8893,3		9033,3	108,3	25,6	16,3	1270,9	1,5	0,7	0,3		617,6		
7	Namangan	718,1	289,4	186	186	48,3	48,3	2,5	2,5	150,2		387	236,8	59	47,8	23,9	4,7	0,1	0,1		248,1		
8	Samarqand	1677,3	379	428,8	246,7	68	63,3	5,2	5,2	796,8		1298,8	310	86,5	62,6	13	6,1	0,7	0,3		278,3		
9	Surxondaryo	2009,9	325,1	278,1	238,6	34,2	32,8	0,3		825,8		1138,4	271,4	63,2	50,4	233,4	3,3	0	0	0,1	574,8		
10	Sirdaryo	427,6	287,3	249	249	7,7	7,7	10,2	10,2	19,9		286,8	266,9	20,4	16,1	4,2	4,2	0,1	0,1	0,1	116		
11	Toshkent	1522,7	399,1	325	292	55,1	55,1	0,8	0,4	445,7	1,4	826,6	339,2	66,3	54	81,6	2,4	3,6	3,5	2,3	542,3		
12	Farg'ona	700,5	368,5	245	245	51,9	51,9			23,5	3,9	320,4	300,8	72	52,9	14,6	13,9	0,9	0,9		292,6		
13	Xorazm	608,2	267,7	205,3	205,3	13,2	13,2	3,8	3,8	109,3		331,6	222,3	53,8	45,1	53,7	0,2	0,1	0,1		169		
14	Toshkent sh.	35,8	5	1,2	1,2							1,2	1,2	6,8	3,8					27,8			
Jami:		44892,4	4331,7	4022,9	3252,1	415,2	386,5	83,6	48,6	21244,3	42,9	25766	3730,1	732,3	542,2	3434,5	53,2	7,2	6,2	155,1	14797,3		

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari.



Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda jami yer fondi 44892,4 ming gektardan iborat bo'lib, shundan bor-yo'g'i 4331,7 ming gektar yoki qariyb 9,7 foizini sug'oriladigan yerlar tashkil etadi.

Jami yer maydonlarining 24057,1 ming gektarini (53,59 %) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar tashkil etsa, 223,5 ming gektarini (0,5 %) aholi punktlari yerlari, 876,3 ming gektarini (1,95 %) sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar, 728,4 ming gektarini (1,62 %) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreasiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar, 14,7 ming gektarini (0,03 %) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, 12021,4 ming gektarini (26,78 %) o'rmon fondi yerlari, 827 ming gektarini (1,84 %) suv fondi yerlari va 6144 ming gektarini (13,69 %) zaxira yerlar tashkil etadi.

Demak, respublika yer fondida jami 44892,4 ming gektar yer maydoni mavjud bo'lib, shundan 4331,7 ming gektarini sug'oriladigan yerlar tashkil etsa, bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 16656,1 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 514,6 ming gektarini, Andijonda 430,3 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 275,9 ming gektarini, Buxoroda 4183,1 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 276,3 ming gektarini, Jizzaxda 2117,9 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 303,9 ming gektarini, Qashqadaryoda 2856,8 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 513,5 ming gektarini, Navoiyda 10948,1 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 126,4 ming gektarini, Namanganda 718,1 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 289,4 ming gektarini, Samarqandda 1677,3 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 379 ming gektarini, Surxondaryoda 2009,9 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 325,1 ming gektarini, Sirdaryoda 427,6 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 287,3 ming gektarini, Toshkentda 1522,7 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 399,1 ming gektarini, Farg'onada 700,5 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 368,5 ming gektarini, Xorazmda 608,2 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 267,7 ming gektarini, Toshkent shahrida 35,8 ming gektarini, shundan sug'oriladigan yerlar 5 ming gektarini tashkil etadi.

Ma'lumki, respublikaning janubida joylashgan Surxondaryo viloyati mamlakat qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari boshqa hududlarga nisbatan 10-20 kun ilgari tayyor bo'ladi.

Bugungi kunda viloyatda jami qishloq xo'jalik yerlari 5695,1 ming gektarini tashkil etsa, shundan 474,4 ming gektarini sug'oriladigan yer maydonlari tashkil etadi (2-jadval).

Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlari 1356,1 ming gektarini tashkil etsa, shundan 318,2 ming gektarini sug'oriladigan yer maydonlari tashkil etadi. Shuningdek, viloyatda jami ekin yerlar 276,3 ming gektarini tashkil etsa, shundan 237,4 ming gektarini sug'oriladigan va 38,9 ming gektarini lalmi yer maydonlari tashkil etadi.

Bundan tashqari, jami ko'p yillik daraxtzorlar maydoni 33,1 ming gektarni tashkil etsa, shundan 32 ming gektarini sug'oriladigan ko'p yillik daraxtzorlardan iborat.

3-jadval: Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarining yer turlari bo'yicha taqsimlanishi, ming ga.

T/r	Hududlar nomi	Umumiy yer maydoni		Ekin yerlar			Ko'p yillik daraxtzorlar		Bo'z yerlar		Pichanzor va yaylovlar	
		jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan		jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani	jami	shu jumladan: sug'oriladigani
					sug'oriladigani	lalmi						
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3261	500,3	414,7	414,7		7,8	7,8	9,4	9,4	1768,9	34,3
2	Andijon	361,1	266,3	199,1	199,1		30,5	30,5	2,2	0,5	15,6	0,9
3	Buxoro	3441,4	273,3	199,6	199,6		20,7	20,7	6,6	6,6	2355,3	
4	Jizzax	1400,6	299,2	483,8	259,3	224,5	25,6	16,6	11,2	1,7	618,4	
5	Qashqadaryo	2321,8	505,4	671,1	415,8	255,3	38,2	36	20,6	4,4	1214,1	0,1
6	Navoiy	7806,2	123,8	119,6	91,4	28,2	9,8	9,2	6,7	6,6	7284,7	
7	Namangan	486,1	275,4	183,8	183,8		46,2	46,2	2,4	2,4	43,5	
8	Samarqand	1475,8	368,5	425,4	245,9	179,5	63,7	62,3	5,2		706,8	
9	Surxondaryo	1356,1	318,2	276,3	237,4	38,9	33,1	32	0,3		689,7	
10	Sirdaryo	371,2	280,4	246,5	246,5		7,6	7,6	9,6	9,6	18,2	




11	Toshkent	774,1	384,5	320,2	290,1	30,1	53,5	44,1	0,7	0,4	207,7	1,4
12	Farg'ona	561	354,3	244,2	244,2		50,6	50,6			19	3,5
13	Xorazm	438,4	263,1	202,9	202,9		12,8	12,8	3,7	3,7	41,6	
14	Toshkent shahri	2,3	1,6	1,2	1,2							
Jami:		24057,1	4214,3	3988,4	3231,9	756,5	400,1	376,4	78,6	45,3	14983,5	40,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari.

Agentlik ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda jami 0,3 ming gektar bo'z yerlar hamda 689,7 ming gektar pichanzor va yaylovlar mavjud.


Ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda qishloq xo'jaligi ekinlari jami ekin maydonlari (faqat dehqonchilik yerlari) 259780 gektarni tashkil etadi. Shundan Termiz shahrida 137 gektar, Oltinsoy tumanida 9395 gektar, Angor tumanida 17434 gektar, Boysun tumanida 9048 gektar, Muzrabot tumanida 25026 gektar, Denov tumanida 25542 gektar, Jarqo'rg'on tumanida 19224 gektar, Qumqo'rg'on tumanida 25466 gektar, Qiziriq tumanida 31182 gektar, Sariosiyo tumanida 9880 gektar, Termiz tumanida 8056 gektar, Uzun tumanida 9859 gektar, Sherobod tumanida 31437 gektar va Sho'rchi tumanida 38094 gektar dehqonchilik yerlari mavjud (1-rasm).



1-rasm: Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ekinlari ekin maydoni (dehqonchilik), gektar

Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

2010-yilda viloyatda jami 2286,8 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari (dehqonchilik) yetishtirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 26755,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu shu davrda qishloq xo'jaligi mahsulotlari (dehqonchilik) yetishtirish 24468,9 mlrd. so'mga yoki 11,7-martaga oshganligini ko'rsatadi (2-rasm).



2-rasm: Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti (dehqonchilik), mlrd. so'm


Manba: Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.

Shuningdek, Termiz shahrida 69,1 mlrd. so'm qishloq xo'jaligi mahsulotlari (dehqonchilik) yetishtirilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich Oltinsoy tumanida 1192,2 mlrd. so'mni, Angor tumanida 1561,9 mlrd. so'mni, Ban-



dixon tumanida 865,3 mlrd. so'mni, Boysun tumanida 1142,6 mlrd. so'mni, Muzrabot tumanida 1914,3 mlrd. so'mni, Denov tumanida 4188,9 mlrd. so'mni, Jarqo'rg'on tumanida 2526,7 mlrd. so'mni, Qumqo'rg'on tumanida 2771,0 mlrd. so'mni, Qiziriq tumanida 1146,3 mlrd. so'mni, Sariosiyo tumanida 1816,2 mlrd. so'mni, Termiz tumanida 1391,1 mlrd. so'mni, Uzun tumanida 1411,1 mlrd. so'mni, Sherobod tumanida 3141,3 mlrd. so'mni va Sho'rchi tumanida 1617,7 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Tahlillarga ko'ra, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri ekanligini ko'rsatadi. Bizningcha, qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishning asosiy omili bu – yer unumdorligi va suv resurslaridir.



3-rasm: Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishga ta'sir qiluvchi omillar va ularning bog'liqligi

Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.

Fikrimizcha, sug'oriladigan yerlarning kengayishi davlatning bu boradagi islohotlariga, xususan, yer osti suvlarini nasos bilan ta'minlashdagi innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq. So'nggi paytlarda sug'oriladigan maydonlarning mintaqaviy o'zgarishi, ekin ekish shakllarining o'zgarishi va suvdan foydalanish texnologiyalari samaradorligini oshirishga javoban sug'orish intensivligi (bir gektar sug'oriladigan yer uchun suvdan foydalanishning mamlakat bo'yicha o'rtacha miqdori sifatida o'lchanadi) pasaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish va sug'oriladigan yerlarda yetishtiriladigan mahsulotlar unumdorligini oshirish borasida istiqbolli chora-tadbirlarni ishlab chiqishda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni fermer, dehqon xo'jaliklariga va boshqa qishloq xo'jaligi korxonalariga qishloq xo'jaligi maqsadlari uchun, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslarga noqishloq xo'jaligi maqsadlari uchun yerlarni ajratish bo'yicha qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish;
- sug'oriladigan ekin maydonlariga ekin ekish, xususan, ikkinchi va undan keyingi ekinlarni ekish jarayonini rejali tashkil etish, masalan: suvni nisbatan ko'proq talab etadigan ekinlarini sug'orish manbalariga yaqinroq maydonlarga hamda aksincha bo'lgan ekinlarni aksincha maydonlarga ekish orqali suv bilan ta'minlash jarayonidagi ortiqcha suv sarfini kamaytirish;
- mutasaddilar tomonidan sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanish, tuproq unumdorligi saqlanishi va oshirilishi ta'minlanishi, shuningdek, ushbu maqsadda qabul qilingan dasturlarining bajarilishi ustidan qat'iy nazoratning o'rnatilishi;
- qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan foydalanish bo'yicha xorij tajribasini keng o'rganish va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanishning samarali yo'llarini ishlab chiqish hamda amalda joriy etish;



- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yer maydonlarida tuproq sifatini aniqlash va aniqlangan salbiy jihatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;
- qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarning minerativ holati va ulardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish hamda bu boradagi amaliy chora-tadbirlarni oshirish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosini hal etishning asosiy yo'llaridan biri bu – qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishdir. Bu nafaqat aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, balki shu yo'nalishdagi sanoat korxonalariga xom ashyo resurslarini yetkazib berish masalasini ham hal etish imkonini beradi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sug'oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanishda avvalo, bu jarayonni tashkil etishning samarali variantini tanlab olish va unga ko'maklashish lozim. Shuningdek, bugungi kunda va kelajakda asosiy muammolardan biriga aylanib borayotgan suv resurslaridan foydalanishning samarali innovatsion yechimlarini ishlab chiqish lozim. Bularning barchasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Altıyev A. S., Ochilov I. S., Sultonov X. G'. Sug'oriladigan yerlar ekologik hodotini yaxshilashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda jahon tajribalari//“Ekonomika i sotsium” №6(85) ch.1 2021. 419-b.
2. Avazbayev S., SHaripov S. R. Yer tuzishning nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TIQXMMI, 2020. 13-bet.
3. Abdurahmanova M. T. Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishga bag'ishlangan nazariy qarashlar evolyusiyasi // Iqtisodiyot va ta'lim 2022-yil 5-son. 395 b.
4. Zaxarova YE. A. APK, gospodderjka i effekt multiplikasii. / YE. A. Zaxarova. // Rossiyskoye predprinimatelstvo. – M.: Kreativnaya ekonomika, 2012. № 4 (2). S. 121-125.
5. Ovchinnikova N. G. Formirovaniye mexanizma obosnovaniya ustoychivogo zemlepolzovaniya // Ekonom. vestn. Rostovskogo gosudarstvennogo universiteta, 2009. T. 2. № 2. S. 41-44.
6. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. / A. Smit. // Antologiya ekonomicheskoy klassiki. – M.: Ekonov, 1993. T. 1. S. 79-396.
7. Dunstan Gabriel MsuY. Farming systems and crop-livestock land use consensus. // Open Journal of Ecology. Vol. 3. № 7 (2013), p. 9.
8. Udachin S. A. Voprosi teorii zemleustroystva. Ucheb. posobiye. – M.: Kolos, 1955. – 162 s.
9. <https://stat.uz>
10. <https://kadastr.uz>
11. <https://www.eworldtrade.com/blog/what-food-products-are-in-high-demand-right-now/>
12. <https://www.worldbank.org/>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil **IQTISODIYOT** va **TARAQQIYOT**

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

